JADIDLAR SIYOSIY-FALSAFIY QARASHLARIDA DAVLAT BOSHQARUVINI MODERNIZATSIYA QILISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI

Rasulov Siroj Sodiq o'g'li
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: sirojrasulov08021999@gmail.com
Tel.(91) 838 19 99

Annotatsiya. Mazkur tezisda jadid mutafakkirlarining siyosiy-falsafiy qarashlari asosida davlat va jamiyat taraqqiyoti masalalari tahlil qilinadi. Jadidchilik harakati dastlab ma'rifiy yo'nalishda shakllanib, keyinchalik milliy taraqqiyot, siyosiy ong va jamiyatni modernizatsiya qilishga qaratilgan keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy harakatga aylangani asoslab beriladi.Tadqiqotda jadid mutafakkirlarining ilm-ma'rifat, milliy ong, fuqarolik faolligi, huquqiy erkinlik va adolatli boshqaruvga oid qarashlari zamonaviy davlat boshqaruvi tamoyillari bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Ularning g'oyalari jamiyatni yangilash, davlat boshqaruvini demokratlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlarida muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishi ko'rsatib beriladi. Natijada, jadidlar merosi Yangi O'zbekiston sharoitida inson qadri ustuvor bo'lgan demokratik va xalqparvar davlat qurishning muhim ilmiy-nazariy manbalaridan biri sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar. Jadidchilik, siyosiy-falsafiy qarashlar, davlat boshqaruvi, modernizatsiya, milliy taraqqiyot, ma'rifat, fuqarolik jamiyati, adolatli boshqaruv, milliy ong, Yangi O'zbekiston.

Davlat va jamiyat taraqqiyoti masalalari jadid mutafakkirlari siyosiy-falsafiy qarashlarida alohida o'rin egallaydi. Jadidlar o'z davrida milliy taraqqiyot, xalq farovonligi, ilm-ma'rifat, adolatli boshqaruv va zamonaviy davlat tizimini shakllantirish g'oyalarini ilgari surganlar. Ularning qarashlari nafaqat ma'rifiy harakat sifatida, balki jamiyatni modernizatsiya qilish va davlat boshqaruvini takomillashtirishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy konsepsiya sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Maklamatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda inson qadri ulug'lanadigan adolatli, erkin va obod jamiyat, xalqparvar davlat, farovon hayot barpo etishga qaratilgan islohotlarimiz jadid bobolarimizning ezgu g'oya va dasturlariga har jihatdan uyg'un va hamohangdir"[1].

Mazkur fikr jadidchilik harakatining bugungi Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasidagi tarixiy va g'oyaviy ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Zero, jadid mutafakkirlari jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ilm-fan, zamonaviy ta'lim, milliy ong, adolatli boshqaruv va xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi davlat tizimini e'tirof etganlar. Ular davlat boshqaruvida qonun ustuvorligi, mas'uliyat, ma'naviy yetuklik va xalq bilan muloqot tamoyillariga alohida urg'u berganlar. Shu jihatdan jadidlar siyosiy-falsafiy qarashlari bugungi davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish jarayonlari bilan bevosita uyg'unlashadi. Chunki zamonaviy boshqaruv tizimida ham inson qadri, ochiqlik, ijtimoiy adolat, fuqarolik faolligi va xalq manfaatlariga xizmat qilish tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Demak, jadidlar merosi nafaqat tarixiy-ma'naviy qadriyat, balki Yangi O'zbekistonda demokratik va xalqparvar davlat qurish jarayonining muhim nazariy asoslaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Jadidchilikning tarixiy va nazariy mohiyati uning jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini chuqur anglash imkonini beradi hamda uni oddiy g'oyaviy yo'nalish doirasidan chiqarib, keng qamrovli

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

ijtimoiy harakat sifatida talqin qilishga asos bo‘ladi. B.Qosimov ta’kidlaganidek, “Jadidchilik oqim emas, harakat. Ijtimoiy, siyosiy, ma’rifiy harakatdir”[2].

Mazkur qarash jadidchilikning ko‘p qirrali tabiatini ifodalaydi. Dastlab ma’rifatparvarlik asosida shakllangan bu harakat vaqt o‘tishi bilan jamiyatdagi real ehtiyojlar va tarixiy sharoit ta’sirida yanada kengaydi. Xususan, ta’lim tizimini isloh qilish bilan birga, u milliy ongni uyg‘otish, ijtimoiy tafakkurni yangilash hamda siyosiy mas’uliyatni shakllantirish vazifalarini ham o‘z zimmasiga oldi. Shu jarayonda jadidlar faoliyati faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki jamiyatni modernizatsiya qilish, fuqarolik ongini rivojlantirish va Turkiston xalqlarining huquqiy manfaatlarini ifodalashga qaratilgan amaliy harakatga aylandi. Bu esa jadidchilikni o‘z davrining eng muhim ijtimoiy-siyosiy hodisalaridan biriga aylantirib, uning tarixiy ahamiyatini yanada mustahkamladi.

Turkiston ma’rifatchilik harakati boy tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, u XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakati orqali yangi bosqichga ko‘tarildi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulqodir Shakuriy, Ashurali Zohiriy, Saidrasul Saidaziziy, Ishoqxon Ibrat hamda Ahmad Donish kabi ma’rifatparvar ziyolilar milliy taraqqiyotning asosiy sharti sifatida ilm-ma’rifatni e’tirof etdilar.

Ushbu mutafakkirlar o‘z faoliyatlari davomida jamiyatni qoloqlik va ma’naviy inqirozdan chiqarishning eng samarali yo‘li ta’lim tizimini isloh qilish va zamonaviy bilimlarni joriy etishda ekanini chuqur angladilar. Shu bois ular yangi usul maktablarini tashkil etish, darsliklar yaratish va xalq orasida ma’rifatni keng yoyish yo‘lida katta sa’y-harakatlarni amalga oshirdilar.

Jadidlar faoliyati nafaqat ma’rifiy islohotlar bilan cheklanib qolmay, balki mustabid boshqaruv tizimi va jamiyatdagi jaholatga qarshi ma’naviy kurash shaklida ham namoyon bo‘ldi. Ular Turkiston jamiyatini ikki tomonlama — mustamlaka siyosati va ichki qoloqlik ta’siridan xalos etish zarurligini asosiy vazifa sifatida ko‘rdilar.

Shu bilan birga, jadid mutafakkirlari xalqni uyg‘otish, milliy ongni shakllantirish va ijtimoiy taraqqiyotga erishishda dunyo ilm-fani va madaniy yutuqlarini o‘rganish muhimligini ta’kidladilar. Ularning nazarida, faqat bilim va ma’rifatga tayangan jamiyatgina mustaqil fikrlaydigan, rivojlangan va zamonaviy davlat tizimini shakllantira oladi.

Jadidchilik dastlab, ma’rifatparvarlik yo‘nalishida boshlanib, keyinchalik siyosiy harakat sifatida tus olgan. Ular o‘z faoliyatlarida Turkiston xalqlarining umummilliy huquqlari uchun kurash masalalari tobora aniq namoyon bo‘lib, pirovardida, oliy maqsadga aylandi[3]. Ushbu fikr jadidchilik harakatining tarixiy rivojlanish jarayonini yoritadi va uning dastlabki ma’rifiy yo‘nalishdan bosqichma-bosqich siyosiy mazmun kasb etganini ko‘rsatadi. Jadidlar faoliyati vaqt o‘tishi bilan Turkiston xalqlarining milliy huquqlari va umumiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan keng ijtimoiy-siyosiy harakatga aylangan.

Jadidchilik harakati tarixiy taraqqiyot jarayonida asta-sekin ijtimoiy islohot g‘oyalaridan siyosiy mazmunga ega bo‘lgan keng qamrovli harakatga aylandi. Bu jarayonda asosiy e’tibor jamiyatning ma’naviy uyg‘onishi bilan bir qatorda, milliy manfaatlarni himoya qilish va siyosiy ongni shakllantirish masalalariga qaratildi. Natijada jadidlar faoliyati faqat ma’rifiy yo‘nalish bilan cheklanmay, balki jamiyatni boshqarish va davlat tuzilishini yangilashga qaratilgan konseptual fikrlar tizimiga aylandi.

Mahmudxo'ja Behbudiy milliy taraqqiyot masalasini tahlil qilar ekan, jamiyatning siyosiy mustaqilligi va huquqiy erkinligi tashqi ta’sir yoki yuqoridan beriladigan in’om emasligini ta’kidlaydi. Uning qarashicha, har bir xalq o‘z huquqi va erkinligini faqat ongli harakat, ijtimoiy birlik va siyosiy

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

faollik orqali qo'lga kiritadi. Shu ma'noda u: "Bilmoq kerakki: 'Haq olinur, berilmaydur!'..."[4] degan fikrni ilgari suradi.

Mazkur yondashuv jadidlarning davlat boshqaruvi haqidagi qarashlarida fuqarolik jamiyati, jamoaviy mas'uliyat va siyosiy ongning markaziy o'rin egallaganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ularning g'oyalari jamiyatni boshqarishning yangi modelini — xalq ishtirokiga asoslangan, adolatli va ma'rifiy davlat tizimini shakllantirish zaruratini asoslaydi.

Jadid mutafakkirlari jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ilm-fan, ma'rifat va zamonaviy taraqqiyot yutuqlarini o'zlashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratganlar. Ular milliy taraqqiyotga erishish uchun boshqa xalqlarning ilg'or tajribalaridan oqilona foydalanish zarurligini ta'kidlagan holda, ma'naviy qadriyatlarni saqlash masalasini ham muhim deb bilganlar. Bu jihatlar Abdulhamid Cho'lponning qarashlarida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, mutafakkir shunday yozadi: "Ey qarindoshlar... katta iltimosimiz shuldurki, Ovro'poning mo'dosidin, shishasidan, buzuq axloqidan namuna olmasdan va bunlarg'a bul jihatdan taqlid qilmasdan, balki ilm, fan, hunar, sanoatg'a o'xshashlik madaniyatlaridan namuna olub, bul jihatdan taqlid qilmog'ingiz lozimdur..."[5].

Mazkur fikr Cho'lponning modernizatsiya masalasiga nisbatan chuqur va oqilona yondashganini ko'rsatadi. Mutafakkir taraqqiyotning asosiy mezoni sifatida ilm-fan, texnologiya, ta'lim va ishlab chiqarish madaniyatini e'tirof etadi. Shu bilan birga, u milliy ma'naviyat va axloqiy qadriyatlarni saqlab qolgan holda zamonaviy taraqqiyot yo'lidan borish zarurligini alohida ta'kidlaydi. Bu qarashlar jadidlarning davlat va jamiyat boshqaruvini modernizatsiya qilish haqidagi siyosiy-falsafiy konsepsiyasini aks ettirib, bugungi kunda ham zamonaviy davlat boshqaruvi va ijtimoiy taraqqiyot jarayonlari uchun muhim nazariy ahamiyat kasb etadi.

Jadid mutafakkirlarining siyosiy-falsafiy qarashlari Turkiston jamiyatida milliy uyg'onish, ijtimoiy tafakkur yangilanishi va davlat boshqaruviga nisbatan yangi yondashuvlarning shakllanishida muhim rol o'ynagan. Ularning faoliyati jamiyatni ma'rifat orqali isloh qilishdan boshlab, asta-sekin siyosiy ongni shakllantirish va milliy manfaatlarni himoya qilish darajasiga ko'tarilgan keng qamrovli ijtimoiy harakat sifatida namoyon bo'ladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, jadidlar merosida ilm-ma'rifat, huquqiy ong, fuqarolik mas'uliyati va adolat tamoyillari davlat va jamiyat taraqqiyotining asosiy omillari sifatida qaralgan. Ularning g'oyalari zamonaviy boshqaruv tizimida ochiqlik, xalq ishtiroki, ijtimoiy adolat va inson manfaatlarini ustuvor qo'yish kabi tamoyillar bilan mazmunan uyg'unlik kasb etadi.

Shu jihatdan jadidchilik merosi nafaqat tarixiy-ma'naviy qadriyat, balki bugungi kunda demokratik davlat qurilishi va boshqaruvni modernizatsiya qilish jarayonlarida muhim nazariy asos sifatida o'z dolzarbligini saqlab qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 11-dekabrdagi "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari' mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigidan//https://president.uz/oz/lists/view/6919
2. Б.Қосимов. Миллий уйғониш:жасорат, маърифат, фидойилик.Т.: Маънавият. 2002. Б.-6.
3. Рахимова М.З. АбдурауфФитратнингахлоқий-фалсафийтаълимоти. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори(phd) диссертацияси автореферати.-Samarqand-2022. B-12.
4. Беҳбудий М. Баёни ҳақиқат // Улуғ Туркистон. 1917 й. 12 июнь.
5. Abdulhamid Cho'lpon. Vatanimiz Turkistonda temir yo'llar // Sadoi Farg'ona, 1914 yil 6 iyun, №26. B.-26.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.